V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2019 yilning yanvar-dekabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlarining soni 16282 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 3985 ta, Xiva shahrida 1587 ta, Xiva tumanida 1420 ta, Urganch tumanida 1881 ta, Xonqa tumanida 1251 ta, Yangiariq tumanida 940 ta, Xazorasp tumanida 1102 ta, Gurlan tumanida 966 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 976 ta, Bog‘ot tumanida 782 ta, Shovot tumanida 756 ta va Yangibozor tumanida 636 tani tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub’ektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2019 yil yanvar–dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes sub’ektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan sub’ektlarning 36,8 foizi), sanoat tarmog‘ida (19,8 foiz), qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (13,5 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (8,4 foiz) tashkil etilgan.

2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 25,6 birlikda, Xiva shaxrida 16,4 birlikda, Yangiariq tumanida 12,2 birlikda, Urganch tumanida 12,6 birlikda, Xiva tumanida 11,4 birlikda,Yangibozor tumanida 11,2 birlikda, Gurlan tumanida 9,7 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 6-9 birlik oralig'ida Xazorasp, Bog'ot, Ko'shko'pir, Xonqa, Shovot tumanlarida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda).



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)

	2020 yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan	*2019 yil yanvar-dekabrida*	
		tashkil topdi	*tugatildi*
Viloyat bo‘yicha:	**16282**	**4668**	**983**
shaharlar:			
Urganch	3985	897	138
Xiva	1587	412	158
tumanlar:			
Bog‘ot	782	272	50
Gurlan	966	356	58
Qo‘shko‘pir	976	315	26
Urganch	1881	627	104
Xazorasp	1102	359	60
Xonqa	1251	362	41
Xiva	1420	296	137
Shovot	756	289	71
Yangiariq	940	245	104
Yangibozor	636	238	36

2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ro‘yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari soni 4668 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich Urganch shahrida 897 ta, Urganch tumanida 627 ta, Xiva shaxrida 412 ta, Honqa tumanida 362 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 315 ta, Xazorasp tumanida 359 ta, Xiva tumanida 296 ta, Shovot tumanida 289 ta, Yangiariq tumanida 245 ta, Gurlan tumanida 356 ta, Bog‘ot tumanida 272 ta va Yangibozor tumanida 238 tani tashkil qildi.

2019 yil yanvar-dekabrda yalpi hududiy mahsulotning 75,3 foizi (2018 yil yanvar-dekabrda 77,8 foiz) kichik biznes sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3196,7 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 36,3 foizi) yoki 2018 yilning yanvar-dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 117,0 foizni tashkil qildi;

- 14336,9 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 105,1 foizni (qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 99,5 foizi) tashkil qildi;

- 3618,6 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 65,0 foizi) o‘zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-dekabrga nisbatan2,2 marta oshdi;

- 2437,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 93,3 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar-dekabrga nisbatan 127,0 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 8,1 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 90,5 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 2,9 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 96,0 foizi) ko‘payishi ta’minlandi;

-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 76,7 foiziyoki 5190,6 mlrd. so‘mi (o‘sish 108,4 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda65,2 foizi yoki 3702,0 mlrd. so‘mi (o‘sish 106,3 foiz) shakllantirildi;

- 126,2 mln AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 90,3 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 289,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 70,4 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Viloyat iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari ulushi

(2019 yilning yanvar-dekabr)

	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm	*Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) ulushi, % hisobida*
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	14336,9	99,5
Sanoat	3196,7	36,3
Qurilish	2437,2	93,3
Chakana savdo	5190,6	76,7
Yuk tashish, *mlntn.*	36,3	94,5
Yo'lovchi tashish, *mln.kishi*	371,1	93,8
Eksport, *mln. AQSH doll.*	126,2	90,3
Import, *mln. AQSH doll.*	289,1	70,4

Iqtisodiyot tarmoqarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(foizda)